

Buxoro davlat universiteti
rektorining ____ -sonli buyrug‘iga
2021-yil ____
7-ilova

**Buxoro davlat universiteti, uning tarkibiy bo‘linmalarida
korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi
hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Buxoro davlat universiteti, uning tarkibiy bo‘linmalari (keyingi o‘rinlarda – Universitet) da korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va korrupsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishi to‘g‘risidagi hisobdorlikni shakllantirish tartibini belgilaydi.

2. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va rivojlanishi masalalari bo‘yicha hisobotlarni (keyingi o‘rinlarda – Hisobotlar) shakllantirish va taqdim etish uchun ma’suliyat Universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tuzilmasi yoki mas’ul xodimlari zimmasida (keyingi o‘rinlarda – Ichki nazorat tuzilmalari) bo‘ladi.

Universitetning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari hisobotni taqdim qilish uchun ma’suliyat hududiy va tarkibiy bo‘linmalardagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat uchun mas’ul xodim (keyingi o‘rinlarda – Mas’ul xodim) zimmasida bo‘ladi.

2-bob. Hisobot turlari va uni tuzish davriyligi

3. Universitetda quyidagi hisobot turlari nazarda tutiladi:

a) Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi, shu jumladan, Universitetning korrupsiyaga qarshi Dasturi yoki yo‘l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishini bo‘yicha hisobot har chorakda Ichki nazorat tuzilmalari tomonidan mazkur Nizomning 3-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

b) Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot har chorakda Ichki nazorat tuzilmalari tomonidan mazkur Nizomning 4-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

4. Hisobot muntazam ravishda ushbu Nizomda belgilangan tartibda va muddatlarda, Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatidan, shuningdek, hisobot davrida korrupsiyaga qarshi tadbirlar o‘tkazilgan yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, tuziladi.

5. Yilning IV choragi uchun hisobot tuzilmaydi, uning o‘rniga yillik hisobot tayyorlanadi.

6. Har choraklik va har yillik hisobot Universitet rahbarlariga (Universitet hay’atiga) topshiriladi.

Universitetning markaziy apparatidagi Ichki nazorat tuzilmasi har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining 25 sanasidan kechiktirmay har choraklik Universitetning umumiy hisobotini

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) ko‘rib chiqishi uchun kiritib boradi.

7. Universitetning yillik hisobotidagi umumiy axborot Internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi. Mazkur axborot Universitetning Ichki nazorat tuzilmalari tomonidan tayyorlanadi.

3- bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisobotni shakllantirish tartibi

8. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi hisobot korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish, shuningdek, Universitetning korrupsiyaga qarshi Dastur yoki Yo‘l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishini monitoring qilish maqsadida tuziladi.

9. Hisobot har chorakda Ichki nazorat tuzilmalari tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 20 sanasidan kechiktirmay tuziladi va Universitet rahbariga (Universitet hay’atiga) ko‘rib chiqish uchun topshiriladi.

10. Hisobotni shakllantirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) hisobot davridan keyingi oyning 2 sanasidan kechiktirmay, Universitetning markaziy apparigidagi Ichki nazorat tuzilmasi Mas’ul xodimlarga ushbu oyning 10 sanasigacha tegishli rahbarlar tomonidan tasdiqlangan mazkur Nizomga 1-ilovaga muvofiq hisobot taqdim etishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi;

b) Universitetning markaziy apparati bo‘linmalarining hisoboti Universitetning markaziy apparatidagi Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan tuziladi va Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish yunalishiga mas’ul bo‘lgan rahbar o‘rnbosari tomonidan tasdiqlanadi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to‘g‘risidagi hisobotning biron-bir bo‘limi bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilmagan taqdirda, tadbirlar amalga oshirilmaganligi sababini ko‘rsatish lozim.

v) Hisobotlarga kiritilgan axborot tegishli hujjatlar nusxalari va boshqa ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi kerak;

g) Universitetning markaziy apparatidagi Ichki nazorat tuzilmasi ushbu Nizomga 2-ilovada ko‘rsatilgan shaklda Universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tizimning faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiy hisobotni tuzadi hamda qo‘srimcha ravishda unga ushbu Nizomga 1-ilovadagi shakl bo‘yicha Universitet tizimi bo‘yicha tuzilgan hisobotdagi ma’lumotlarni kiritadi.

Hisobotda asosiy axborotni o‘zida aks ettirgan qisqacha ma’lumotnomasi va takliflar bo‘lishi kerak. Yillik hisobot o‘z ichiga o‘tgan yilning xuddi shunday ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan solishtirma tahlilni ham qamrab olishi kerak.

11. Universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi hisobotlar va Universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiy hisobotni tuzishda Ichki nazorat tuzilmalari teshishli bo‘linma xodimlaridan zarur hujjatlar, tushuntirish va statistikani so‘rash va olish huquqiga ega.

12. Ichki nazorat tuzilmasi qisqa ma’lumotnomasi biriktirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiy hisobotini hisobot davridan keyingi oyning 21 sanasigacha Universitet rahbariga taqdim etadi.

4- bob. Korrupsiyaga qarshi kurashga oid davlat dasturlarida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish tartibi

13. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shaklda tuziladi.

14. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiy hisobot bilan bir vaqtda tuziladi.

15. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarning amalga oshirilgani to‘g‘risidagi hisobot rahbar tomonidan ko‘rib chiqilgandan keyin Agentlikka yuboriladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

16. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Universitetning ichki idoraviy hujjatlarga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritilgan taqdirda ushbu Nizom qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Nizomga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritishga Universitetning markaziy apparatdagi Ichki nazorat tuzilmasi ma’sul bo‘ladi.

Buxoro davlat universitetlari, uning tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizomiga 1-ilova

**Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining
faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisobot**

Universitet nomi:	
Hisobotni tayyorlagan xodim (Korruptsiyaga qarshi kurashish uchun ma’sullar):	FISh, lavozimi, tuzilmasi
Hisobot davri:	
Hisobot tayyorlangan sana:	

T/r	Tadbirlar guruhining nomlar	Tadbirlarning nomlari	Bajarish muddati	Ma’sul ijrochilar	Ijro to‘g‘risi da belgi	Ijro etilmagan bo‘lsa, ijro etilishi kutilayotgan muddat	Bajarilganlikni tasdiqlash, bajarilmagan bo‘lsa sabablari

T/r	Tadbir	Natijalar	
		I. Siyosatlar va protseduralar	
1.	Ichki hujjatlarni moslashtirish	Universitetda hisobot davri uchun moslashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo‘yicha choralar yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga oid tartib-taomillarga ega bo‘lgan ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va sh.k.) ko‘rsatish zarur.	
2.	Xavf-xatarli vazifa va tartib-taomillar kesimida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga oid yangi korruptsiyaga	Hisobot davrida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan korruptsiyaga qarshi kurashish sohasiga kiritilgan sohalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni	

	qarshi tartib-taomillar va choralar hamda korrupsiyaga qarshi masalalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni ishlab chiqish.	(siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va sh.k.) ko‘rsatish zarur.
--	---	---

II. Shaxsiy namuna

3.	Universitet rahbari va uning o‘rinbosarlarining ichki tadbirlardagi chiqishlari (nutqi).	3-6-bandlarda Universitet tizimi rahbarlari va ularning o‘rinbosarlarining qonunchilik talablariga rioya qilish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo‘lish, tarkibiy bo‘linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazarat va tartib-taomillarga amal qilishning muhimligi to‘g‘risidagi pozitsiyasi, fikr mulohazalari ochiq e’tirof etilgan tadbirlarni ko‘rsatish lozim.
4.	Korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha ichki kommunikatsiyani tarqatish (Universitet rahbari va uning o‘rinbosarlarining nomidan).	
5.	Universitet rahbari va uning o‘rinbosarlarining OAVdagi fikr-mulohazalari.	

III. Xavf-xatarlarni baholash

6.	Universitetda korruptsiyaviy xavf-xatarlar bo‘yicha har yillik baholash o‘tkazish	Ha o‘tkazilgan\yo‘q o‘tkazilmagan (sabablari ko‘rsatiladi) \ jarayonda (qaysi bosqichdaligi ko‘rsatiladi)
7.	Hisobot davri uchun Universitetda ish jarayonda yangi aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va ularning darajalari (yuqori, o‘rtalik, past).	Yangi korruptsiyaviy xavf-xatarlar qaysi jarayonlarda aniqlanganligi, ularning darajasi sanab o‘tiladi. Qanday korruptsiyaviy xavf-xatarlar qayta baholandи, yangi daraja, bahoni o‘zgartirish sabablari va korruptsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo‘yicha takliflar. Universitetning korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ilova qilinadi.
8.	Hisobot davrida aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni tartibga solish bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlar	
9.	Qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlar soni	Qoldiq tavakkal yuqori bo‘lgan korruptsiyaviy xavf-xatarlarning foizdagi nisbati ko‘rsatiladi
10.	Qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatar o‘rtalik va undan past darajagacha kamaytirilgan aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlar umumiy soniga foizdagi nisbatini ko‘rsatish zarur.	Qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlar o‘rtalik va undan past darajagacha kamaytirilgan korruptsiyaviy xavf-xatarlar umumiy soniga foizdagi nisbatini ko‘rsatish zarur.

IV. Korruptsiyaga qarshi amalga oshiriladigan tartib-taomillar

11.	Universitetda aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari va qabul qilingan choralar	Universitetda aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining sonini ko‘rsatish yoki aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari reestrini ilova qilish zarur.
12.	Xodimlar tomonidan har yili manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish.	Har yillik manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o‘tgan xodimlarning Universitetdagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko‘rsatish zarur. Har yili manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasini amalga oshirishi shart bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o‘tgan xodimlarning Universitetdagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko‘rsatish zarur.
13.	Ishga olingan xodimlar va nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar soni.	Universitetga ishga qabul qilingan xodimlar sonini va Universitetdagi lavozimga nomzodlar tekshiruvi sonini ko‘rsatish zarur. Tekshiruv o‘tkazilmagan bo‘lsa sababini ko‘rsatish zarur.
14.	Hisobot davrida o‘tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari soni	Hisobot davrida o‘tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari sonini, tekshiruvlar natijalari bo‘yicha ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbatini ko‘rsatish zarur. Tekshiruv o‘tkazilmagan bo‘lsa sababini ko‘rsatish zarur.
15.	Amalga oshiriladigan boshqa korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar	Mavjud bo‘lganda ushbu bo‘limda ko‘rsatilmagan boshqa amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi tadbirlarni ko‘rsatish.

V. Ta’lim va kommunikatsiya

16.	Korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha treninglar o‘tkazish: barcha xodimlar uchun; korruptsiyaviy tavakkallchilikka eng ko‘proq moylilik ehtimoli bo‘lgan vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalar uchun.	Treninglar turi va shakli, o‘qitilgan xodimlar soni, ularning lavozimlari darajasi va bo‘linmalarni ko‘rsatish.
17.	Universitetga yaqinda ishga olingan xodimlar uchun treninglar o‘tkazish.	Korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha treninglardan (umumiy, tanishuv) o‘tgan yangi xodimlarni umumiy yangi xodimlar soniga foizlardagi nisbati treninglar mavzusi kesimida ko‘rsatish.
18.	Xodimlarning korruptsiyaga qarshi qonunchilik talablari va bo‘linmada amalga oshirilayotgan korruptsiyaga qarshi choralardan xabardorligini oshirishga oid boshqa tadbirlar	Tadbir ishtirokchilarning maqsadli guruhini, ularni soni (imkon bo‘lsa), mavzusi va turini (masalan, tanlovlardan, viktorinalardan, so‘rovnoma malaridan va b.) ko‘rsatiladi) va uning yakunlarini ko‘rsatish.
19.	Korruptsiyaga qarshi kurash uchun ma’sullar tomonidan bajarilgan	Korruptsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga amal qilish zaruriyati to‘g‘risidagi, shu jumladan,

	korrupsiyaga qarshi kurash me'yorlari mavzusida axborot-tarqatma materiallari.	ularning to'g'ri talqin qilinishi va ularga to'g'ri amal qilish to'g'risidagi xabarnoma va boshqa tarqatma materiallari.
20.	Xodimlarning ahloq-odob madaniyatini shakllantirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurash tizimi va korrupsiyaga qarshi qonunchilikning talablari xaqida xabardor qilishning boshqa usullari.	Masalan, binolardagi axborot plakatlari va boshqa materiallari, skrinsvayerlar, ishchi kompyuterlar ekraniga qo'yiladigan suratlar va boshqalar.
21.	Fuqarolik jamiyati va bo'linma kontragentlari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazish	Fuqarolik jamiyati vakillari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazishning soni, nomlanishi, mohiyati va natijalarini ko'rsatish (masalan, korrupsiyaga qarshi kurash kuni, korrupsiyaga qarshi mavzudagi ishlar tanlovi). Shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qo'gshimcha shartlar kiritilgan yangi kontragentlarning yangi kotragentlarning umumiy soniga foizlardagi nisbati.
VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakalar va qoidabuzarliklar to'g'risidagi xabarlar. Ta'sir choralarি		
22.	Xatti-xarakatlar, shu jumladan, potentsial xatti-xarakatlar uchun aloqa kanallariga kelib tushgan xabarlar soni	Xabarlar sonini quyidagi ma'lumotlarni ham kiritgan holda ko'rsatish: kelib tushgan sanasi kelib tushgan aloqa kanali, xabar mavzusi, tegishli hisobotni ilova qilish.
23.	Xizmat tekshiruvi o'tkazilgan; Korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilganligi to'g'risida tasdiqlangan holatlar (shu jumladan, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va maqolalar kesimida) aniqlangan; Bo'linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari aniqlangan (shu jumladan, ichki hujjatlar kesimida); Aybdorlar aniqlangan holatlar soni.	Har bir band bo'yicha holatlar sonini ko'rsatish.
24.	Qabul qilingan ta'sir choraları.	Qanday korrektsiyalash choraları, shu jumladan, intizomiy choralar, ichki nazorat tizimida qanday kamchiliklar aniqlandi va nazoratni kuchaytirish uchun qanday choralar taklif qilindi.
VII. Monitoring va nazorat		
25.	Hisobot davrida mavjud korrupsiyaga qarshi kurashish talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillar bajarilishi ustidan tekshiruvlar o'tkazilganligi	Universitetda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha mas'ullar tomonidan o'tkazilgan tekshiruv tadbirlarini, shu jumladan, ularning sonini quyidagi kesimda ko'rsatish Tekshiruv ob'ektlari (boshqarma, bo'lim); Tekshiruv mavzusi (masadan, xaridlar, kadrlar);

		Tekshiruv tadbirdari turi (audit, tavakkal tranzaktsiyalari monitoringi yoki protseduralari va b.); Tekshiruv tadbirdari xarakteri (rejali, rejadan tashqari).
26.	Bo‘linmada belgilangan nazorat tadbirdari va tartib-taomillar buzilish holatlari aniqlanganmi va ularga nisbatan qo‘llanilgan ta’sir choralar?	Qaysi tartib-taomil yoki vazifani bajarishda qanday qoidabuzarliklar aniqlangan? Aniqlangan holatlar sonini ko‘rsatish. Vazifa va tartib-taomillarni bajaruvchi shaxslar uchun qanday tavsiyalar tayyorlangan. Ular qanday rasmiylashtirilgan (masalan, buyruq yoki boshqa ichki hujjatlar)?

Xulosalar: Hududiy va tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalarini ko‘rsatish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatiga umumiylaho berish, zaruriyat tug‘ilganda avvalgi davrlar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslama tahlil o‘tkazish, qoniqarli natjalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini ko‘rsatish zarur.

Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va korrektsiyalovchi tadbirdar rejasi: kelgusi hisobot davrida hisobdorlikning alohida elementlarini yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirdarni ko‘rsatish zarur.

Buxoro davlat universitetlari, uning tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizomiga 2-ilova

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida 202..yil –chi chorak uchun

UMUMIY HISOBOT

I. Universitetning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot¹

Universitet tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarning amalga oshirilgani to‘g‘risidagi qisqa ma’lumot, shu jumladan markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirgan bo‘linmalar sonini ko‘rsatish zarur;

Hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida Korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarni amalga oshirmagan bo‘linmalar ko‘rsatiladi, shuningdek, hisobotga ilovada ularning nomi, amalga oshirilmagan tadbirlar va qisqacha-asosiy sabablarini alohida ko‘rsatish lozim.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha sohalarni tartibga soluvchi, va hisobot davrida markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida tatbiq etilgan korrupsiyaga qarshi sohasiga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy va ichki hujjatlar (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va shu kabilar)ni ko‘rsatish lozim.

III. Xavf-xatarlarni baholash²

Universitet tomonidan xavf-xatarlarni baholash amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi axborot, shu jumladan, korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirgan va o‘zlarining korruptsiyaviy xavf-xatarlar matritsasini yangilagan markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida ko‘rsatish kerak;

Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirmagan hududiy va tarkibiy bo‘linmalari soni viloyatlar, Universitetning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida ko‘rsatiladi, shuningdek hisobotga ilovada ularning nomi va ularning bajarilmaganligi sabablar qisqacha ko‘rsatiladi;

Baholash jarayonida yangi aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlar markaziy

¹Ushbu bo‘limda va keyingi o‘rinlarda hisobotning har bir bo‘limi bo‘yicha quyidagilarni ko‘rsatish kerak:

- Birlashgan ko‘rinishda markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida hisobot davri uchun ma’lumotlar. Agar zaruriyat bo‘lsa, alohida bo‘linmalar va ular bo‘yicha ma’lumotlarni ko‘rsatish;
- Zaruriyat tug‘ilganda avvalgi davrlar ko‘rsatkichlari bilan solishtirma tahlil o‘tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik(erishmaganlik sabablarini ko‘rsatish lozim).

²Bo‘lim faqat har yillik hisobot davrida to‘diriladi. Mazkur bo‘limda Universitet tizimida korruptsiyaviy xavf-xatarni baholashni o‘tkazish uslubiyotiga amalga oshirilgan xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tahliliy axborot aks ettiriladi.

apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida ko‘rsatiladi. Shuningdek, hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo‘yicha taklif etilgan va amalga oshirilgan tadbirlar qayd etiladi;

Korruptsiyaviy xavf-xatarlarning toifalar bo‘yicha nisbati (yuqori, o‘rta, past) hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida ko‘rsatiladi;

Hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida Universitet uchun yuqori bo‘lgan qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlar, shuningdek, ko‘rsatilgan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun taklif etilayotgan tadbirlarni ko‘rsatish lozim (mavjud bo‘lgan taqdirda).

IV. Amalga oshiriladigan korruptsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

Manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalangan va tartibga solingan holatlari soni, shu jumladan, ishga qabul qilish, har yillik deklaratsiyalash jarayonida³ (mavjud bo‘lgan taqdirda), markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida ko‘rsatiladi;

Universitetda manfaatlar to‘qnashuvini markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida manfaatlar to‘qnashuvining yillik deklaratsiyasi tartib-taomillaridan o‘tgan xodimlarning umumiyligi xodimlar soniga foizlardagi nisbati, shuningdek, deklaratsiyalangan va tartibga solingan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari qayd etiladi;

Universitet bo‘yicha rejalashtirilgan manfaatlar to‘qnashuvining har yillik deklatsiyalanadigan manfaatlar to‘qnashuviga nisbatan ko‘rsatkichlari bajarilmagan hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida tahliliy ma’lumotlarni keltirish kerak (masalan, manfaatlar to‘qnashuvini barcha rahbarlar deklaratsiyalashi lozim, amalda esa faqat 50% gina rahbar buni bajargan)⁴;

Hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida Universitet tizimida aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi va qabul qilingan choralar bo‘yicha, shu jumladan, umumiyligi soni va toifalar kesimida (*masalan, xarid protseduralaridagi, ish bo‘yicha bevosita bo‘ysunish natijasida va shu kabilarda*) tahliliy ma’lumotlarni keltirish lozim.

Korruptsiyaga qarshi qoidalarni Universitet shartnomalariga kiritish

Korruptsiyaga qarshi qoidalarni Universitetning xo‘jalik shartnomalariga (shartnomalarning foizli nisbati) kiritish bo‘yicha, shu jumladan markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimidagi kontragentlar tahririda tahliliy ma’lumotlarni keltirish, kontragentlarning korruptsiyaga qarshi qoidalarni shartnomalarga kiritishni rad etish sabablarini ko‘rsatish;

Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida Universitet tizimida kontragent tomonidan korruptsiyaga qarshi qoidalalar buzilishi sababli shartnomalarni bekor qilish bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni ko‘rsatish.

Kontragentlarni tekshirish

Hisobot davrida kontragentlar bo‘yicha o‘tkazilgan tekshiruvlar soni, ijobiy va

³ Manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish hisobot davrida bajarilgan bo‘lsagina axborot to‘ldiriladi.

⁴ Axborot faqat yillik hisobotda to‘ldiriladi.

salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida ko‘rsatiladi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida Universitet tizimiga ishga kirish uchun nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar sonini ko‘rsatiladi.

V. Ta’lim va kommunikatsiya

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitishning natijalarini markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida: o‘qitilgan xodimlarning foizdagi nisbati, ta’lim shakli (bevosita/onlayn) ko‘rsatiladi;

Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida Universitet tizimi bo‘yicha o‘qitish darajasi past bo‘lgan korrupsiyaga qarshi ko‘nikmalarga oid axborot ko‘rsatiladi (rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarga taqqoslangan holda);

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha kommunikatsiya turlari va sonini hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida (masalan, tarqatmalar, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazish) ko‘rsatiladi;

Bo‘limda shuningdek, Universitet tizimida o‘tkazilgan keng ko‘lamli alohida tadbirlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbazarliklar to‘risidagi xabarlar

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbazarliklar bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risidagi aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida ko‘rsatiladi;

Mansab vazifalari va tartib-taomillar kesimida olingan tahliliy ma’lumotlar (masalan, xaridlar jarayonida, kadrlarni ishga qabul qilish bilan bog‘liq tartib-taomillarda) keltiriladi;

Olingan xabarlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar qoidabuzarliklar kesimida keltiriladi (masalan, korrupsiyaviy xatti-xarakatlar, manfaatlar to‘qnashuvi, kelishuv tartib-taomillarini protseduralarini buzish va boshqalar);

Olingan xabarlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar aloqa kanallari kesimida keltiriladi (masalan, ishonch telefoni, bevosita xabar berish va boshqalar).

VII. Monitoring va nazorat⁵

Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida hisobot davrida Universitet tizimi tomonidan mavjud korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillarning bajarilgani to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar keltiriladi, shu jumladan, tekshiruvlar o‘tkazilgan Universitetlar soni, shuningdek, tekshiruv o‘tkazilgan vazifalar va tartib-taomillarining davriyligi va xarakteri to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar (rejadagi, rejadan tashqari) ko‘rsatiladi;

Hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida tekshiruvlar o‘tkazilmagan bo‘linmalar soni alohida ko‘rsatiladi, ilovada ularning nomi hamda tekshiruvlar o‘tkazilmaganligining asosiy sabablari qischacha qayd etiladi;

O‘tkazilgan tekshiruvlar natijalari to‘g‘risidagi umumiyligi axborot ko‘rsatiladi shu jumladan, ijobjiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati qayd etiladi. Qoidabuzarliklar mavjud bo‘lsa, mazkur hisobotning VIII-bo‘limga havola beriladi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi talablarning buzilganligi to‘g‘risida markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida tahliliy ma’lumotlarni ko‘rsatiladi, shu jumladan:

qoidabuzarliklarning umumiy soni;

qoidabuzarliklarning qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi axborot manbalari bo‘yicha tuzilmasi (“ishonch telefoni”, bevosita xabar berish, monitoring va nazorat natijalari va boshqalar);

Universitet ichki hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalar va tartib-taomillar bo‘yicha (xaridlar, kadrarga oid masalalar va b.) qoidabuzarliklar tuzilmasi;

Universitetda qabul qilingan ta’sir choralari to‘g‘risida tahliliy ma’lumotlarni hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida ko‘rsatish, shu jumladan:

o‘tkazilgan umumiy tadbirlar soni va aniqlangan barcha qoidabuzarliklar bo‘yicha ta’sir choralar ko‘rilganligi yoki ko‘rilmaganligi;

ta’sir choralarini turlari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar (aybdorlarni javobgarlikka tortish, shu jumladan, javobgarlik turlari kesimida; Universitet tizimi jarayon va ichki hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish va boshqalar), shu jumladan, zarur bo‘lgan holda qoidabuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha qanday tadbirlarni tatbiq etish taklif etilmoqda va hisobot davrida qanday tadbirlar tatbiq etilganligi ko‘rsatiladi.

IX. Xulosalar

Universitet tizimida hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida korrupsiyaga qarshi choralarini amalga oshirishning asosiy natijalari ko‘rsatiladi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatiga umumiy baho beriladi. Zaruriyatga ko‘ra avvalgi davrlardagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslama tahlil o‘tkaziladi, qoniqarli natjalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini qayd etiladi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasি

Keyingi hisobot davrida Universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining alohida ko‘rsatkichlarni markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlar ko‘rsatiladi.

⁵Universitetda hisobot davrida Korrupsiyaga qarshi protseduralariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish metodikasiga muvofiq o‘tkazilgan tadbirlar yakunlari bo‘yicha umumiy tahliliy axborot aks ettiriladi.

Buxoro davlat universitetlari, uning tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizomiga 3-ilova

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi HISOBOT